Axborot texnologiyalari. Zamonaviy onlayn platformalar yordamida muloqotni rivojlantirish natijalari yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi. Masalan, onlayn guruh mashg‘ulotlari talabalar orasida ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Madaniyatlararo muloqot. Xalqaro mavzularni o‘z ichiga olgan mashg‘ulotlar talabalar orasida global dunyoqarashni kengaytirishga va boshqa madaniyat vakillariga hurmat bilan yondashishga xizmat qildi.

Yuqoridagi natijalar asosida kommunikativ kompetensiyani oshirish maqsadida interfaol metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishni ta’lim jarayoniga keng joriy etish tavsiya etiladi. Bu esa nafaqat talabalar, balki o‘qituvchilarning ham malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Brown, H.D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.

(2). Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), p. 1–47.

(3). Ellis, R. (1997). Second Language Acquisition. Oxford University Press.

(4). Harmer, J. (2001). The Practice of English Language Teaching. Longman.

(5). Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J.B.Pride & J.Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269–293), Penguin Books.

(6). Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.

(7). Littlewood, W. (1981). Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge University Press.

(8). Richards, J.C., & Rodgers, T.S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

(9). Savignon, S.J. (2002). Interpreting Communicative Language Teaching: Contexts and Concerns in Teacher Education. Yale University Press.

(10). Widdowson H.G. (1990). Aspects of Language Teaching. Oxford University Press.

Karimova Malohatoy Mo‘minjonovna (Andijon davlat Pedagogika instituti)

TARBIYA JARAYONIDA TA’LIMIY ISLOHOTLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarbiya jarayonida ta’limiy islohotlarning ahamiyati yoritilib, O‘rta Osiyo Turkiston xalqlarining savodxonlik darajasi aniq, tarixiy, asosli ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Ona tuprog‘imizda yetishib chiqqan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, Umar Xayyom, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Bobur kabi buyuk allomalarni qadrlaymiz. Sho‘ro davridagi statistik ma’lumotlarni o‘rganib, ona-Vatanimizga bo‘lgan ana shu davrdagi munosabatlarni ko‘rib, yuragimiz achishadi va mamlakatimizning bugungi istiqbolini qadriga yetish har bir yurt farzandining ma’naviy burchimizdir.*

Kalit so‘zlar: *sho‘ro siyosati, inqilob, aksioma, chuqurlashtirish, 3-renessans, jamoatchilik, da’vat, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, O‘rta Osiyo, savodxonlik, Turkiston.*

Каримова Малохатой Муминжоновна (Андижанский государственный педагогический институт)

ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕФОРМ В ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация*. В данной статье рассмотрен вопрос уровня грамотности народов Средней Азии, Туркестана на основе точных, исторических, обоснованных данных. Мы глубоко ценим научное наследие таких великих людей, как Имам ал-Бухари, имам Ат-Тирмизи, Абу Наср Фараби, Абу Али ибн Сина, Ал-Хоразми, Ал-Беруни, Али Кушчи, Казизада Руми, Умар Хайям, Амир Темур, Алишер Навои, Мирза Улугбек. В период советской власти их имена были забыты. Нравственный долг каждого гражданина страны – оценить нынешнее развитие нашей страны, в которое каждый из них внес достойный вклад.*

Ключевые слова: *советская политика, революция, аксиома, углубление, 3-е возрождение, община, призыв, духовно-нравственный облик, Средняя Азия, грамотность, Туркестан, советская эпоха, учёные.*

Karimova Malohatoy Muminjonovna (Andijan State Pedagogical Institute)

IMPORTANCE OF EDUCATIONAL REFORMS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation*. In this article, the level of literacy of the peoples of Central Asia Turkestan vas prepared based on accurate, historical, reasonable data. Imam al-Bukhari, Imam al-Tirmizi, Abu Nasr Farabi, Abu Ali ibn Sina, Al Khorazmi, Al-Beruni, Ali Kushchi, Qazizada Rumi, Umar Khayyam, Amir Temur, Alisher Navai, Mirza Ulug, vho grev up in our motherland. Bek, ve appreciate great scholars like Mirza Babur. Studying the statistical data of the Soviet era, our hears ache vhen ve see the relations vith our motherland*

in this period, and it is the moral duty of every child of the country to appreciate the current perspective of our country.

Key words: *Soviet policy, revolution, axiom, deepening, 3rd renaissance, community, da'wah, spiritual and moral image, Central Asia, literacy, Turkestan, Soviet era, scholars.*

Kirish (Introduction). Maktab qadimdan muqaddas dargoh, mudarris muallim esa ibrat namuna ko'rsatuvchi inson sifatida ulug'langan. O'tmishda maktab va madrasalar ta'lim-tarbiya birligiga asoslangan holda o'quvchilarga odob-axloqni, mehr-shafqat kabi insoniy fazilatlarni singdiruvchi ma'rifat maskanlari sifatida mashhur bo'lgan. Inqilobdan keyingi yillarda tashkil topgan maktablar ahamiyati ataylab bo'rttirib ko'rsatilib, eski maktablarga bir tmonlama yodashildi. Eski maktablarda faqat diniy bilimlar o'qitilgan deb riyokorlik qilindi. Agar inqilobgacha O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan maktab va madrasalarda diniy bilimlar bilan dunyoviy bilimlar o'qitilmasa, allomalarimiz qanday muhitda yetishib chiqqanlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). O'rta Osiyo xalqlarining o'tmishdagi savodxonligi haqidagi xaqiqat soxtalashtirilgan. Ular musulmonlarning savodxonlik darajasini asossiz pasaytirib": 1897-yilgi aholi ro'yxatida o'lkada savodxonlar 1,8%ni tashkil etgan, ya'ni inqilobgacha Turkiston yoppasiga savodsiz", edi deyishdi. Ma'lumotlarga qaraganda esa inqilobga qadar ham yurtimizda 30% aholi savodli bo'lganligi, bu daraja o'z davrida dunyo miqyosida oldingi o'rinlardan birini egallashi aniq dalillar asosida aytilmoqda. Inqilobga qadar Turkistonda 6600 maktab bo'lib, ularda 70000 o'quvchi, 331 madrasada 9000 talaba saboq olganligi tarixiy hujjatlarda qayd etilgan. Tarix fanlari doktori P.G.Kim tarixiy manbalarga suyanib, savodxonlik xususida quyidagi ma'lumotlarni qayd etdi: "Turkistonda aholi soni 3792774, maktablar soni 6027, o'quvchilar soni 674015, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar1, 7%, savodxonligi 19,55% bo'lgan [2]. Sho'ro milliy siyosati o'zbekni urmadi, ranjitmadi, biroq tarixidan judo qildi. Qarangki, aholini 98%ni savodsiz deb o'sha "savodsizligimizga" o'zimizni ishontirishga intilishdi. O'ylab qarasak, "qizillar" o'zbekning o'tmishi, o'zbekning nasl-nasabidan bekorga hadiksiramagan ekanlar. Inqilobdan avvalgi "kaltak bilan o'qitiladigan" jahon ilmiga qanday allomalarni yetkazib berdi-yu, bizning maktabimizda qanday "buyuk"lar yetishib chiqdi va dunyo tamaddunini, "tafakkur, ma'naviyat" nuri bilan yoritdilar. Bunga misol qilib Imom al-Buxoriy, Termiziy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, Umar Xayyom, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur kabi jahon fani madaniyatining yorqin yulduzlarini e'tirof etishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). 3-renessans bugun shu lahzalarda jamiyatimizning har bir hujayarsida muttasil yetishib kelayotgan real voqelikdir. Yuksalishni istagan xalq maktabga kuch beradi, bu aksioma mustaqillik yillarida tildan tuhsmadi-yu, lekin raqamlar ko'p, sifat esa kam o'zgargandek. Ta'lim tizimining hamma bo'g'inlarida maktab ayrim fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan maktablar, hunar maktablari, litsey, texnikum, oliy o'quv yurtlarida eng asosiy omil o'quvchining o'zi bo'lib qolmoqda. Bolada istak bo'lmasa, ta'lim natija bermaydi. Aslida, bu ta'lim to'g'risidagi yangi qonunda belgilab qo'yilgan. "O'quvchi endi ta'limning obyekti emas, subyektidir".

Jamiyatimizda qaror topgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muhit, ajdodlardan avlodlarga o'tib yashab kelayotgan ezgu an'analarimiz va boshqa xususiyatlardan kelib chiqib, tarbiyalanganlik mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin. Vatanni sevish, ota-onani, ustozlarni va boshqalarni hurmat qilish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, irodalilik, so'z va amalning birligi, vijdonlilik, mehr-shafqatlilik, xushmuomalalilik, milliy qadryatlarga sodiqlik, sog'lom turmush tarziga rioya qilish, tabiatni sevish va asrash, kamtarinlilik, atrofdagi voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik kabilarni nazarda tutish mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu mezonlar tarbiya topganlik ta'rifining umumiy asoslarinigina belgilaydi. Zotan, kundan kunga yangilanayotgan, barcha sohalarda taraqqiyot shiddat bilan ilgarilayotgan bir zamonda ta'lim-tarbiya va unga doir tushunchalar, yondashuvlar o'zgarishalarga uchrashi, tabiiy hol. Ayniqsa, axborot olamining chegara bilmasligi, inson ongi va qalbini zabt etishga urinishlarning kuchaygani, "ommaviy madaniyat" niqobidagi xurujlarning avj olishi, oilaviy hayotning anonimligi tasodiflarga moyilligi chuqur dinimiz bilan bog'liq holda yoshlar ahloqining qiyinlashuvi, ko'cha ta'sirining borgan sari kuchayishi [3] ham jismonan, ham ma'nan sog'lom avlodni voyaga yetkazishda muammolar ko'lamini yanada oshiradi.

Yurtimizda ta'lim tizimi tubdan isloh etildi. Ta'lim tizimining qator sohalariga chuqur e'tibor qaratilib, buning natijasida o'g'il-qizlar xalqaro fan olimpiadalarida va turli tanlovalarda dunyo yoshlari bilan bo'lishmoqda, o'z bilim va salohiyatini namoyon etib, eng yuksak pog'onalarni zabt etayotgani nihoyatda quvonarlidir. Yoshlarda ta'lim va tarbiya muvozanati qanchalik barqaror? degan savol kelib chiqadi. Bu kabi savollarga dono falsafiy qarash "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi, degan hayot falsafasini keltirishimiz o'rinli. Zero, bilimlilik va ma'nan hamda jismonan tarbiyalanganlik o'rtasida do-

imo to‘g‘ri proporsional munosabat bo‘lmas ekan, kamolot pillapoyalarida bardam ishonchli odimlash mushkul.

Tarbiya jarayoni avlodlararo ijtimoiy-tarixiy hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar ta’siri ostida jismonan sog‘lom, ma’nan barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushunchadir. Demak, ayni vaqtda ta’lim va tarbiya atributlari bir shaxsda alohida-alohida shakllanishi, bir-birini inkor etishi kamyob holatdir. Chunki ular bir-birini vujudga kelishiga turtki bo‘ladi, bo‘shliqlarini to‘ldiradi, rivojlanishini ta’minlaydi. Ammo bilim, asosan, o‘rganish, tarbiya esa amal qilishda o‘z ifodasin topishini hisobga olsak, bu mohiyatan yaxlit tushunchalarning biror shaxsda jamlanishi yoki jamlanmasigi jamiyat, oila, ta’lim muassasalardagi muhit, u yerda tarkib topgan qarashlar holatiga bog‘liq ekani oydek ravshandir.

Tarbiyalanganlik holati, avvalo, kishining oilada, jamoat joylarida, o‘zini tutishida, atrofidagilar bilan o‘zaro muomalasida, zimmasidagi mas’uliyat bilan his qilishida, o‘z vazifa va burchini sidqidildan bajarishida, o‘zgalar bilan ongli muloqotida bilinadi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida tarixiy sinovdan o‘tgan, milliy an’analar asosida shakllangan “Xalq pedagogikasi”ni hamda zamonaviy mezonlarni o‘zida uyg‘unlashtirga tarbiya texnologiyasiga ehtiyoj sezilmoqda. Bu texnologiyaning hayotimizda aks etishi tarbiya ishiga aynan bir makon va zamonni talab etadiga alohida jarayon sifatida qaramasligimizni taqozo etadi. Bunda tarbiyachining xoh ota-ona, xoh o‘qituvchi-murabbiy bo‘lsin ma’naviy-ma’rifiy darajasi, mavjud sharoit va yaratilgan imkoniyatlar ahamiyatlidir. Shu o‘rinda tarbiyada keng jamoatchilik va maktabning o‘rni beqiyos katta. Chunki bolaning bilimlilik darajasi, albatta, tarbiyalanganlik holatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bola maktabda o‘qitiladigan barcha fanlardan davlat ta’lim standartlari darajasida bilim, ko‘nikma malakani egallagan bo‘lsa, demak, tabiat jamiyat qonun-qoidalariga amal qilishni o‘zining vazifasi burchi deb biladi. Endi o‘ylab ko‘raylik, ertangi kunimizni hal qiluvchi kuchi, taraqqiyotimizning charxpalagiga aylanishi lozim bo‘lgan yosh avlod tarbiyasida oila va maktab o‘rtasida shugina hamkorlikning o‘zi yetarlimi? Aslida, o‘z farzandi haqida “o‘zlashtirish ko‘rsatkichi past” degan xulosani eshitgan ota-ona o‘g‘li yoki qizi bilan ushbu muammo yuzasidan ochiq suhbatlashishi, maktabiga borib, vaziyatni o‘rganishi kerk emasmi? Bolasining bilim olishidagi oqsashlar tarbiyasidagi noqisliklarning eng kichik mevasimasmikan? Muammolar yechimida oqibatdan ko‘ra sababni muhokama qilish samaraliroq-ku! [4].

Kundalik hayotda o‘qituvchi va bolaning ota-onasi o‘rtasidagi to‘g‘ri munosabat ota-onalarga farzandining ta’lim muassasasida o‘qishi, xulq-atvori, jamoat ishlaridagi faolligi haqida ma’lumot berib borish bilan birga, o‘quvchiga o‘zi haqida eslatib turishi, ya’ni o‘zinning yutuq kamchiliklariga “ko‘zgu” vazifasini o‘tashi lozim. Haqqoniy yo‘lga qo‘yilgan munosabat, bola haqida ota-ona va pedagog tomonidan samimiy fikr-mulohazalarning bildirilishi ta’lim-tarbiya jarayonida ijobiy o‘zgarish yasaydi. Darhaqiqat, hozir shaxsni shakllantirish bo‘yicha ta’lim omilida katta yutuqlarga erishdik, ammo shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ta’limga qaraganda tarbiya ishlari ma’lum darajada orqada qolayotgandek [5], deydi sotsiologiya fanlari doktori Mansur Bekmurodov.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bizning mustaqil diyorimizda, ajdodlarimiz ruhini shod etish, ularni qadrlashga, ulardan foydalanib, ular haqida ilmiy tadqiqotlar olib borishga, ularni ilmiy merosini keng jamoatchilikda targ‘ib qilish o‘zini haqiqiy inson sanagan, yurtni ardoqlagan har bir o‘g‘il-qizning insoniy va ma’naviy burchi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Samarqandagi She’rdor madrasasi peshtoqiga yozib qo‘yilgan hadisdan.
(2). Hur Turkiston kitobi. Tohir Qahhor. Toshkent, 1962.
(3). B.Hamraqulova. Tarbiya – jamiyat ishi. “Tafakkur” jurnali, 2008-yil, 2-son.
(4). “Tafakkur” jurnali, 1, 2, 3-sonlar, 2021.
(5). Sotsiologiya fanlari doktori Mansur Bekmurodov.

Xoldorov Sharof G‘ulom o‘g‘li (O‘zbekiston–Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand shahri)

14–15 YOSHLI GANDBOLCHILARNING TEZKOR-KUCH TAYYORGARLIGINI DIFFERENSIYALI YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Annotatsiya. *Maqolada pedagogik tadqiqot natijalari 14–16 yoshdagi gandbolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda “differensial yondashuv” usullaridan foydalanish samaradorligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi. 14–16 yoshdagi gandbolchilarni tayyorlashning yillik sikli jarayonida tezkorlik va kuchga yo‘naltirilgan samarali mashqlar majmualari eksperimental ravishda sinovdan*